UO'K. 631.4

SIRDARYONING TURLI TERASSALARIDA JOYLASHGAN TUPROQLARNING XOSSA-XUSUSIYATLAR

SH.M.Turdimetov
Guliston davlat universiteti b.f.d., professor
U.A.Raimova
Guliston davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada Sirdaryo daryosining turli terrasalarida joylashgan tuproqlarning xossa-xususiyatlari to'g'risida qisqacha ma'lumotlar berilgan. Olingan natijalarga ko'ra, daryoning turli terassalarida joylashiga ko'ra ularning morfologik belgilari ham bir-biridan farq qilishi, tuproqning mexanik tarkibi, suvli so'rim tahlili natijalari ham turlicha bo'lishi aniqlangan.

Kalit so'zlar: tuproq ayirmalari, quruq qoldiq, sulfat, xlor, terrasa, prolyuvial, allyuvial, lyossimon yotqiziqlar, sizot suvlari sathi, tuproq sho'rlanishi, granulometrik tarkib.

Аннотация

В данной статье представлены краткие сведения о свойствах и характеристиках почв, расположенных на различных террасах реки Сырдарьи. Согласно полученным результатам, установлено, что в зависимости от расположения почв на различных террасах реки их морфологические признаки существенно различаются. Кроме того, выявлены различия в механическом составе почв и результатах анализа водной вытяжки.

Ключевые слова: почвенные разности, сухой остаток, сульфаты, хлориды, терраса, пролювиальные, аллювиальные и лёссовидные отложения, уровень грунтовых вод, засоление почв, гранулометрический состав.

The abstract

This article presents brief information on the properties and characteristics of soils located on different terraces of the Syr Darya River. According to the results obtained, it was established that the morphological characteristics of the soils differ depending on their location on different river terraces. Differences were also identified in the mechanical composition of the soils and in the results of water-extract analysis.

Key words: Soil varieties, dry residue, sulfates, chlorides, terrace, proluvial, alluvial and loess-like deposits, groundwater level, soil salinity, granulometric composition.

Kirish. Tuproqning agrokimyoviy va agrofizikaviy xossalariga, sifat bahosiga tuproqlarning joylashgan terrasalari muhim ahamiyatga ega. Bu bo'yicha ko'pchilik tadqiqotlarda tuproq xossalarining shakllanishida geomorfologik jihatdan joylashuvning ahamiyati kattaligi ta'kidlangan.

K.Kilic, S.Kilic, R. Kocyigitlarning ilmiy ishlarida [1] Turkiyaning turli hududlarida tuproqning xossalariga ko'ra baholash bo'yicha ma'lumotlar berilgan. Tuproq baholash ko'rsatkichlari sifati tuproq pH ko'rsatkichi, tuproqning singdirish qobiliyati, umumiy azot, harakatchan fosfor kabi xossalaridan foydalanilgan. Bundan tashqari statistik va geostatistik tahlil natijalaridan foydalanilgan. Tuproqning mexanik tarkibi asosiy ko'rsatkichlaridan biri etib e'tirof etilgan.

D.Battsetseg, Ch.L.Khagvasuren, O.Batkhishig, Kh.Zoljargalklar fikriga ko'ra [2], Buyant daryosi havzasi Mo'g'ilstonning eng baland daryo havzalaridan biri hisoblanadi. Ushbu daryo havzasining turli

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

terrasalaridan qishloq xo'jaligida foydalanishi bo'yicha bir-biridan farq qiladi. Oxirgi 300 yil davomida daryoning pastki terrasidan qishloq xo'jaligida foydalanilgan, qolgan terrasalarida esa ko'chmanchi chorvachilik faoliyat yuritilgan. Buyant daryosi turli terrasasada joylashishiga ko'ra, bir-biridan farqlanuvchi 18 ta tuproq guruhiga ajratilgan. Tuproq guruhlarining xossa va unumdorligiga ta'sir qiluvchi omillar ham farq qilishini ta'kidlashgan.

Mirzacho'l vohasining turli hududlarida joylashgan tuproq xossalarining ham turlicha bo'lishi, o'zlashtirish va sug'orish natijasida tuproqlarning o'zgarishi yuzasidan ham tadqiqotlar olib borilgan. Turli ekinlarni ekish orqali tuproq unumdorligini yaxshilash, shuningdek, Mirzacho'lning eskidan o'zlashtirilgan qismi va yangidan o'zlashtirilgan qismidagi tuproqlarning turli geomorfologik sharoitda joylashishiga ko'ra xossalari ham bir-biridan farq qilinishi ta'kidlangan [3-6].

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Sirdaryo daryosining turli terrasalarida joylashgan tuproqlarning xossasini o'rganish uchun Guliston tumanidagi ikkita massiv tanlab olindi: "Boyovut" va O'zbekiston massivlari. Quyida ushbu massivlarning daryo terrasasida joylashgan tuproqlarning tavsifi va mexanik tarkibi, suvli so'rim tahlili natijalari haqida ma'lumot berilgan.

Tuproq granulometrik tarkibi tahliliga e'tibor qaratiladigan bo'lsa, barcha tuproq kesmalarida yirik chang zarrachalari (0,05-0,01 mm) ustunlik qilinishini kuzatishimiz mumkin. Uning miqdori ayniqsa, 29-kesmada yuqori ko'rsatkichga ega bo'lib, 33,8-39,8 foizni tashkil etgan. Yirik chang zarrachalarining granulometrik tarkibida ustunlik qilishi barcha bo'z tuproqlarga xos bo'lib, bu xossa ushbu tuproqlarni shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan ona jins-lyosslarga bog'liqdir.

1-0,25 mm kattalikdagi zarrachalarning miqdori tuproq granulometrik tarkibi yengil bo'lgan tuproqlarda yuqori ko'rsatkichga ega. 6-kesmaning 0-60 sm qatlamida uning miqdori 23 26 foizni tashkil etgan. Ushbu tuproqlar daryoning II-terrasasida joylashgan bo'lib, suv o'tkazuvchanligi yuqori hisoblanadi. Qolgan tuproq kesmalarida 1-0,25 mm katalikdagi zarralarning miqdori past ko'rsatkichga ega. 0,1-0,05 mm katalikdagi zarrachalar barcha tuproq kesmalari va ularning qatlamlarida deyarli bir xilda tarqalgan, lekin 6-kesmaning 63-85 va 1-kesmaning 64-124 sm qatlamida uning miqdori 10 foizdan kam. Barcha bo'z tuproqlardagi kabi yirik chang zarrachalari (0,05-0,01 mm) ning miqdori yuqori ko'rsatkichga ega. Tuproqning granulometrik tarkibi tuproqning barcha xossalariga ta'sir ko'rsatadi va tuproq unumdorligining asosiy ko'rsatkichlaridan hisoblanadi.

Xulosalar

1. Sirdaryo daryosining turli terrasalarida joylashgan tuproqlarning granulometrik tarkibi bir-biridan farqlanib, barcha kesmalarda yirik chang zarrachalari (0,05–0,01 mm) ustunligi kuzatildi.

2. Yengil mexanik tarkibli tuproqlarda 1–0,25 mm o'lchamdagi zarrachalar miqdori yuqori bo'lib, ayniqsa daryoning II-terrasasida joylashgan 6-kesmada ularning miqdori 23–26 % ni tashkil etdi. Bu holat mazkur tuproqlarning suv o'tkazuvchanligi yuqori ekanligini ko'rsatadi.

3. Tuproqlarda yirik chang fraksiyasining ustunligi ularning lyossli ona jinslarda shakllanganligi bilan bog'liq bo'lib, granulometrik tarkib tuproqning suv-fizik xossalari va unumdorligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kilic, K., S. Kilic, R. Kocyigit, Assessment of spatial variability of soil properties in areas under different land use. 2012. Bulg. J. Agric. Sci., 18: 722-732.

2. Battsetseg D., KhagvasurenCh.L., Batkhishig O., ZoljargalKh. Soils of Buyant River Basin: Types, Properties, and Relation to other Environmental Parameters. Bulletin of Higher Educational Institutions. North Caucasus Region. Natural Science. 2020. No. 1. pp. 26-35.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

3. Turdimetov Sh.M., Rakhimov Z. Influence of Leguminous and Fodder Crops on Soil Agrophysical Properties and Crop Yields. Annals of Plant Sciences. Volume 11, Issue 01 (2022) pp. 4705-4711.
4. Turdimetov S.M., Musurmanova M.M. American Journal of Agriculture and Horticulture Innovations. Volume 02 Issue 11-2022. pp 01-06.
5. Turdimetov Sh., Khudoyberdiyeva Z., Tadjibayev A. Quality Assessment of Gypsum Soils of Mirzachol Oasis. Journal of Population Therapeutics and Clinical Pharmacology, 2023. 30(12), pp. 295–301.
6. Turdimetov Sh., **Urazalieva M., Esonboeva N.** PROPERTIES AND QUALITY ASSESSMENT OF HYDROMORPHIC SOILS OF MIRZACHOL OASIS. Eur. Chem. Bull. 2023,12 (Special Issue 1, Part-B), 3992-4000.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.